



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 80 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	



OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOIIY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL

Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi

Farg'ona davlat universitetining psixologiya
(faoliyat turlari bo'yicha)
yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila hayotida ayol shaxsining rol identifikatsiyasi jarayoni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ayolning oilaviy va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish mexanizmlari, shaxsiy qadriyatlar, madaniy stereotiplar va gender munosabatlari tizimida shakllanadigan psixologik omillar ochib beriladi. Tadqiqotda ayol shaxsining "Men-konsepsiyasi", emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiya darajasi oila tizimidagi barqarorlik bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatilgan. Maqolada A. Adler, E. Erikson, T. Parsons va zamonaviy gender psixologiyasi nazariyalariga tayangan holda ayolning o'z rolini anglashdagi psixologik mexanizmlar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari oila psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish amaliyotida qo'llash uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: rol identifikatsiyasi, oila psixologiyasi, ayollik identiteti, gender stereotiplar, ijtimoiy rol, psixologik moslashuv, shaxsiy qadriyatlar, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, psixologik farovonlik.

Abstract: This article provides a psychological analysis of the process of women's role identification in family life. The mechanisms by which women internalize family and social roles, as well as the psychological factors formed within the system of personal values, cultural stereotypes, and gender relations, are explored. The study demonstrates a direct correlation between a woman's level of self-concept development, emotional intelligence, and communicative competence with the stability of the family system. Based on the theoretical approaches of A. Adler, E. Erikson, T. Parsons, and contemporary gender psychology, the article analyzes the psychological mechanisms through which women comprehend and integrate their roles in the family. The research results possess both scientific and practical significance for the fields of family psychology and personal development.

Key words: role identification, family psychology, female identity, gender stereotypes, social role, psychological adaptation, personal values, emotional intelligence, communicative competence, psychological well-being.

Аннотация: В данной статье проводится психологический анализ процесса ролевой идентификации женщины в семейной жизни. Раскрываются механизмы усвоения женщиной семейных и социальных ролей, а также психологические факторы, формирующиеся в системе личностных ценностей, культурных стереотипов и гендерных отношений. В исследовании показана прямая взаимосвязь между уровнем развития «Я-концепции» женщины, эмоционального интеллекта и коммуникативной компетентности с устойчивостью семейной системы. В статье, опираясь на теоретические подходы А. Адлера, Э. Эриксона, Т. Парсонса и современных концепций гендерной психологии, анализируются психологические механизмы осознания женщиной своей роли в семье. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для области семейной психологии и личностного развития.

Ключевые слова: ролевая идентификация, семейная психология, женская идентичность, гендерные стереотипы, социальная роль, психологическая адаптация, личностные ценности, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность, психологическое благополучие.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ayolning oila va jamiyatdagi o'rni yangi psixologik mazmun kasb etmoqda. Ayol shaxsining oila tizimida o'zini namoyon etish shakllari, kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashgan rollari, shuningdek, ruhiy barqarorligini saqlash mexanizmlarini o'rganish zarurati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila hayotida ayolning rol identifikatsiyasi masalasi nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy-psixologik jihatdan ham muhimdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Biz o'tmishni yodga olar ekanmiz, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz, jahongir bobolarimiz qatorida, mana shunday buyuk insonlarni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug'vor ishlarga ruhlantirib, har bir ishdagi kambarbasta

bo'lgan fozila ayollarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz! Donishmand xalqimiz hamisha ayollarni e'zozlab yashagan, xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko'rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan", degan fikrlari ayni haqiqat.

"Ayollarning jamiyatdagi mavqei va rolini ko'tarish davlatchiligimizning ustuvor va asosiy yo'nalishlaridan biridir", – degan so'zlarining o'zi ham yurtimizda ayollar masalasi naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yurtimizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi, oiladagi o'rnini mustahkamlash borasida milliy mexanizm muvaffaqiyatli ishlab turibdi, unda xotin-qizlarning bandligi, ijtimoiy foydali mehnatdagi faol ishtiroki belgilangan. O'zbekistonda ayollar harakatini kuchaytirish, o'zbek ayollarining jamiyatda o'z o'rnini belgilash, O'zbekiston ayollari iqtidor salohiyati yuksak ekanini dunyoga ko'rsatish maqsadida hukumatimiz qator muhim hujjatlarni rasmiylashtirdi. Qolaversa, bugun xalqaro maydonda o'z o'rnini topib, dunyo siyosatdonlari tomonidan e'tirof etilayotgan mamlakatimizning yangi parlamentida aynan xotin-qizlarning o'z o'rne, mavqei, darajasi bo'lishi ham tabiiy.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325 son Farmoniga muvofiq mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaning jamiyat va ijtimoiy hayotdagi mavqei shu oila tarbiyachisi bo'lmish ayol bilan belgilanadi. Zero, yangi avlod tarbiyachisi sanalgan ayol uning ongi va tafakkuri oilada shakllanib, milliy mafkuraning ilk tushunchalari ham ulg'ayib voyaga yetgan oilada tarkib topadi. Shuni nazarda tutgan holda, oilada onaning namunali xulq-atvori, ma'naviy – ruhiy odobi, yaxshi tarbiya ko'rganliklari, bolaga tarbiya berishdagi tajriba va talabchanliklari, bolalarning yoshligidanoq odobli, aqlli va har tomonlama madaniyatli bo'lib o'sishida muhim o'rin tutadi.

Ayol oilada va jamiyatda tarbiya posboni hamdir. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat dastavval ota-onaga, aka-ukalarga, yaqin qarindoshlarga va atrofdagilarga bo'lgan munosabatdan boshlanadi. Oilada ota-onaning farzandlari bilan qancha ko'p vaqt birga bo'lishi, o'zaro muloqotlar, o'rgatilgan bilim va ma'naviy qadriyatlarlar mehr tuyg'usining shuncha mustahkamlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda yurtimiz ayollari hayotning barcha sohalarida – ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sport, tibbiyot, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, madaniyat va san'at sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ularning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, jamiyatdagi mavqei ham o'ziga xos va turlicha bo'lishi tabiiy. Ayollarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, huquqiy, siyosiy, madaniy – ma'rifiy saviyasini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borish lozim.

Ayollarning oilada o'z zimmalariga oladigan rollari -bu xotin, rahbar, oila daromadini boshqaruvchi va oxirgi, lekin eng muhimi ONA. Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli jozibali va muhim bo'lagi - bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq atvorini shakllantiradi. Bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissiy va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik bo'ladi. Bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa psixologik distantsiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi. Boladagi kognitiv rivojlanish, ya'ni fikrlar tarbiyasi dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir etadi.

Ingliz olimi U.R. Bion onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon bo'ladi. Shu tariqa, onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o'rganadi. Abdulla Avloniyning oila pedagogikasi va psixologiyasiga oid fikrlari ham diqqatga sazovordir. A.Avloniy bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan "Qush uyasida ko'rganini qiladur" deydi. "Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuk xulqlardan odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqar. Tarbiyani kim qilur, qayda qilnur degan savol keladur. Bu savolga "birinchi uy tarbiyasi -bu ona vazifasidir". Ko'rinib turibdiki, Avloniy bolaning mukammal tarbiyasi oilaga bog'liqligini e'tirof etgan. Shunday ekan bola tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ayollarimiz opa-singillarimiz bilimdon bo'lishlari shart va zarur.

Abdurauf Fitratning fikricha, farzandni to'laqonli kamol toptirish o'stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma'naviy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir - degan fikr bildirganlar. Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Ayol kishi uyning idorasi va bolalar tarbiyachisi, farzandini mehr bilan o'stirish majburiyatining bir qismi uning bo'yniga tushadi. Boladagi kognitiv rivojlanish ya'ni fikrlar tarbiyasi dunyoqarashning shakllanishiga ham onaning xulq-atvor katta ta'sir etadi. Olamni ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan yana biri -bu hissiy - emotsional bog'langanlikdir.



Ingliz psixiatri Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan, turli hayotiy vaziyatlarda ona - bola munosabatlarida M.Eynsvort degan olim tomonidan tekshirilgan emotsional bog'langanlik nazariyasi odatda yetti oylikdan keyingi bolaning onaga juda bog'lanib qolishi va shu orqali bola uchun muhim psixologik rivojlanishlar ro'y berilishi isbotlangan. Demak ayol nafaqat bugungi kundagi maqomi va jamiytdagi obro'yi, eng avvalo, uning oilasidagi o'rni, oila qadriyatiga munosabati hamda farzandlari tarbiyasidagi muvaffaqiyatlariga bog'liq ekanini chuqur anglashimiz zarur. Prezidentimiz rahbar ayollarga murojaat qilib, onalar farzandlarining nafaqat tarbiyasi bilan shug'ullanishlari uning bilimi, dunyoqarashining rivojlanishiga, ma'naviyatning yuksalishiga yanada jiddiy qarashlari kerakligini ta'kidlab o'tdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farzandlariga yoshligidanoq tejamkorlikni, saranjom - sarishtalikni o'rgatib boradigan ham ayol, aslida. Shu o'rinda, bugungi kun o'zbek ayoli ma'rifatli ma'naviyatli yuqori, tafakkuri teran, shu bilan birga zamonamizga xos barcha ijobiy xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan oqila va dono bo'lishlari nihoyatda zarurligi aytiladi. Chunki, ayolning bilimdonligi, ma'naviyati, ma'rifati va savodxonligi farzandining oilasining baxt-u, saodatidir. Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida respublikamizda davomida ayollar masalasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari tayyorlandi. Bu hozir ham davom etmoqda. Lekin, ayollar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar bazasini shakllantirgani haqida biror ma'lumot yo'q. Eng achinarlisi, mazkur tadqiqotlarning amaliyotga joriy etilishi masalasi, afsuski, qog'ozlarda qolib ketmoqda. Shu maqsadda, yangi tashkil etilayotgan "Xotin-qizlar va oila ishlari qo'mitasi" ushbu masalalarga e'tibor qaratga maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ayol, avvalombor, ona farzandlariga chiroyli tarbiya, go'zal xulq berish-ularning kasbi. Maqomi, martabasi shu bilan o'lchanadi. Binobarin, mamlakat taqdiri shunga bog'liq. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ayol ma'naviyati va oila ma'naviyati o'xshash, uyg'un, mushtarak tushunchalardir. Demak, allani ona suti bilan birga hazm qilgan, tarbiyani oilada olgan, mahallada chiniquqan bola vatan qadrini biladi, oila - nikoh muqaddasligini anglaydi. Tabiiyki, oilaviy ajrimlar soni keskin kamayib ong-u, tafakkurda benazir tiyran nigohli insonlar salmog'i ortadi. Tarbiya - egasiga qaytuvchi jarayon. Kim nimani o'zi uchun kutsa, shuni bolasiga bersin; oqibat istagan oqibat, mehrsog'ingan mehr. Bu fazilatlar ayollarga xos nazokat, hayo, samimiylik, kamtarlik, oqilalik, uddaburonlik, tadbirkorlik bilan egasiga yetkazilgan ekan u kamolotdek, vafodek o'ziga jinsdosh hislatlarni yetaklab keladi. Insoniyat yaralibdiki, shunga intiladi. Orzu qiladi, targ'ib qiladi. Ayol ma'naviyati bugun millat ma'naviyatiga aylandi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi, oila haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Ayollar oilada barqaror rivojlanish va hayot sifatining kalitidir. Ayol shaxsiy zavq va ambitsiyalarni qurbon qiladi, axloq me'yorlarini o'rnatadi, stress va zo'riqishni yengillashtiradi, xonadonda tinchlik va tartibni saqlaydi. Yaxshi tartibli intizomli uy xo'jaligi normal oilaviy hayot uchun zarurdir. U bir korxonaning bosh direktori. U oila a'zolari o'rtasida ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab vazifalarni belgilaydi va ishni bajarish uchun asbob-uskunalar va materillar bilan ta'minlaydi. U ovqat tayyorlash va xizmat ko'rsatish, kiyim tanlash va parvarish qilish, uyni jihozlash va saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ayol bolaning birinchi o'qituvchisi. Ayol ijtimoiy merosni bolaga uzatadi. Farzand irq qonunlarini, odob - axloq qoidalarini va ideallarini onadan o'rganadi. Ona, bola bilan yaqin va doimiy aloqada bo'lganligi sababli, u bolaning o'ziga xos xususiyatlarini kashf eta oladi va rivojlantiradi, keyinchalik uning shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ona sifatida u oilaviy sog'liqni saqlash xodimi. Ona oilaning har bir a'zosi, nochor go'dak, kasal bola, o'smir yoshlarning jismoniy farovonligi uchun juda qayg'uradi. U uyni va uning faoliyatini shunday tashkil qiladiki, oilaning har bir a'zosi to'g'ri ovqatlanish, yetarli uyqu va yetarli dam olish imkonini beradi.

Ona o'z iste'dodi bilan uyni bolalar uchun qulay va mos keladigan joyga aylantiradi. Bundan tashqari, u ichki dizayn va tartibga solishda didni rivojlantiradi, shunda uy ajoyib bo'ladi. Ona uyning va oila doirasining markaziy shaxsidir. Barcha a'zolar unga hamdardlik, tushunish, va e'tirof etish uchun murojaat qilishadi. Ayol o'z vaqtini, mehnatini va fikrini oila a'zolarining farovonligi uchun bag'ishlaydi. Oila tipi emotsional yaqinlik, munosabatlardagi sadoqat bilan ajralib turadi.

Oilalarning a'zolari ko'pincha birga vaqt o'tkazadilar. Oila a'zolari uchun bu vaqt shaxsiy do'stlar va qiziqishlarga bag'ishlangan vaqtdan ko'ra muhimroqdir. Biroq, bunday oilalardagi uyg'unlik, barcha farqlar bostirilganda, chalkashlik darajasiga yetib bormaydi. Oilalar nafaqat yaqinlik va ajralishning muvozanatiga, balki ularning xususiyatlarini barqaror ushlab turish qobiliyatiga ega bo'lgan oila ichidagi o'zgarishlarning maqbul kombinatsiyasiga ham muhtojdir. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlaridagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi -davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham

ularning o'rne beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, qonuniylik demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – "Olima ayollar jamiyati" tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun maxsus chora tadbirlar ko'rilmoqda. Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi; uning huquqiy va intutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va mintazam takomillashtirib borilayotganligi bilan halqiluvchi ahamiyatga egadir.

Zamonaviy jamiyatda ayol shaxsining ijtimoiy rol identifikatsiyasi — bu murakkab psixologik, madaniy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u oilaviy tizim va kengroq ijtimoiy tuzilmalar bilan uzviy bog'liqdir. Ayolning oiladagi roli faqatgina an'anaviy "ona" yoki "uy bekasi" funksiyasi bilan cheklanmay, balki u iqtisodiy, ma'naviy, madaniy va ma'rifiy jarayonlarda faol subyekt sifatida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy rol identifikatsiyasi deganda shaxsning ma'lum ijtimoiy guruh yoki pozitsiya bilan o'zini uyg'unlashtirishi, shu pozitsiyaga xos qadriyat, xulq-atvor va stereotiplarni o'zlashtirishi tushuniladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning rol identifikatsiyasi ko'p bosqichli va dinamik jarayon bo'lib, u shaxsiy tajriba, ijtimoiy-madaniy muhit, gender stereotiplari, oilaviy an'analar va ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida shakllanadi (Butler, 2011; Chodorow, 1999). Ayol shaxsining oila ichidagi roli ko'pincha uch asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Biologik-psixologik rol — ona, farzand tarbiyachisi, himoyachi va emotsional tayanch sifatida.
2. Ijtimoiy rol — oilaviy qarorlar qabul qilishda, iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirokchi sifatida.
3. Madaniy-ma'naviy rol — qadriyatlar, axloq me'yorlari va milliy an'analarni avloddan avlodga yetkazuvchi sifatida.

So'nggi yillarda olib borilgan sotsiologik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, gender rollarining transformatsiyasi natijasida ayollarning oiladagi ijtimoiy mavqei sezilarli darajada kengaymoqda. Masalan, ilgari faqat erkaklar zimmasida bo'lgan iqtisodiy ta'minot roli ko'p hollarda erkak va ayol o'rtasida teng taqsimlanmoqda. Bu holat ayol shaxsining identifikatsiya jarayonida yangi qadriyatlar va strategiyalar shakllanishiga olib keladi (Giddens, 2020).

Ijtimoiy psixologiyada ayolning rol identifikatsiyasi ko'pincha "gender ijtimoiylashuvi" jarayoni bilan izohlanadi. Bu jarayon orqali qiz bola kichik yoshdan boshlab ijtimoiy me'yorlarga mos ayollik qiyofasini o'zlashtiradi — nutq uslubi, xulq-atvor modeli, estetik qadriyatlar va ma'naviy pozitsiyalar shakllanadi. Shu bilan birga, ta'lim, mehnat bozori, siyosiy ishtirok va ommaviy madaniyatdagi o'zgarishlar bu identifikatsiyani yanada ko'p qirrali qiladi.

Ayolning oiladagi ijtimoiy roli shaxsiy "men-kontsepsiyasi" va "ijtimoiy men" tushunchalari bilan bevosita bog'liqdir. Bu ikki qatlamning uyg'unlashuvi — ayolning o'zini oilada qanday ko'rishi va boshqalar uni qanday ko'rishini anglash orqali shakllanadi. Ijtimoiy psixologiyada bu jarayon ko'pincha ko'zguli men nazariyasi (Cooley, 1902) bilan tushuntiriladi: ayol o'z rolini atrofdagilar qay tarzda qabul qilayotganini anglagan holda shakllantiradi.

Zamonaviy oilalarda kuzatilayotgan yana bir muhim tendensiya — bu rol fleksibilizatsiyasi, ya'ni ayolning faqat bitta ijtimoiy rolda emas, balki bir nechta rolda bir vaqtning o'zida bo'lishi. U nafaqat ona yoki rafika, balki yetakchi, mutaxassis, ilmiy xodim yoki tadbirkor sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu esa identifikatsiya jarayonini murakkablashtiradi, lekin ayni paytda ayolning ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi.

Shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya jarayonida madaniy kontekst alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatlar, diniy tushunchalar, an'anaviy gender normalari ayolning rolini shakllantiruvchi kuchli omillardir. Shu bois, O'zbekiston kabi an'anaviy madaniyatga ega jamiyatlarda ayol shaxsining ijtimoiy roli ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy ijtimoiy rollarni egallash.

Yangi davr sharoitida ayollar identifikatsiyasining yangicha ko'rinishi — bu avtonom identifikatsiya, ya'ni ayolning o'z qiziqishlari, qarashlari va hayotiy yo'lini mustaqil tanlashi bilan bog'liqdir. Bu jarayon shaxsiy o'sish, o'zini anglash va ijtimoiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini talab qiladi.

Rol identifikatsiyasi (lot. identificare — "aniqlash, tanish") — shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy rol bilan uyg'unlashtirish jarayonini bildiradi. Ushbu jarayon natijasida inson o'z "Men"ini jamiyatda, oila tizimida va shaxsiy munosabatlarda aniqlaydi. Ayol uchun bu jarayon ikki yo'nalishda kechadi: birinchisi — ijtimoiy stereotiplar va madaniyat ta'sirida, ikkinchisi esa — individual qadriyatlar va psixologik ehtiyojlar asosida.

A. Adler (1930) shaxsning hayotiy maqsadlari va ijtimoiy hissi uyg'unligining rolini ta'kidlagan holda, ayolning o'z rolini aniqlashi uning ijtimoiy foydalilik hissi bilan bog'liq ekanini qayd etadi. Shuningdek, E. Erikson



(1968) identiklikning bosqichma-bosqich shakllanishini ko'rsatib, ayollarda bu jarayon oila, muhabbat, ona roli va jamiyatdagi mavqe orqali namoyon bo'lishini izohlagan.

Zamonaviy gender psixologiyasi (A. Giddens, S. Bem) esa ayollik identitetini jamiyatdagi gender konstruksiyalar, ijtimoiy kutishlar va shaxsiy tanlovlar o'rtasidagi muvozanat sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, ayolning oila hayotidagi roli ijtimoiy rollar tizimida markaziy psixologik o'rinni egallaydi.

Oila tizimi — bu o'zaro munosabatlar, rollar va qadriyatlar birligini o'zida mujassam etgan ijtimoiy tizimdir (Bowen, 1978). Ayol bu tizimda nafaqat emotsional markaz, balki muvofiqlashtiruvchi, barqarorlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Ayolning o'z rolini to'g'ri aniqlashi oila barqarorligini ta'minlaydi. Bunda psixologik moslashuv, empatiya, hissiy muvozanat va kommunikativ kompetensiya asosiy rol o'ynaydi. Ayol o'z rolini to'liq qabul qilmaganda yoki jamiyat tomonidan yuklatilgan kutilmalar (gender stereotiplar) bilan ichki qadriyatlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda, "rol konflikti" paydo bo'ladi. Bu esa psixologik charchoq, o'ziga ishonchsizlik, depressiv holat kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Ayolning oila hayotidagi rolini anglash darajasi uning psixologik farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotlar (Ryff, 1995; Diener, 2000) shuni ko'rsatadiki, o'z hayotiy maqsadini anglagan, oiladagi roli bilan o'z "Men"ini uyg'unlashtirgan ayollar o'z hayotidan yuqori darajada qoniqish hosil qiladi.

Ayollarning psixologik farovonligini ta'minlash uchun quyidagi omillar muhim:

Emotsional intellekt — hissiy muvozanat va empatiya qobiliyati;

Kommunikativ kompetensiya — ijobiy muloqot va nizolarni boshqarish qobiliyati;

Shaxsiy qadriyatlar tizimi — o'zini qadrlash va oila qadriyatlarini uyg'unlashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayolning oila hayotidagi rol identifikatsiyasi – bu murakkab, ko'p qirrali psixologik jarayon bo'lib, shaxsning o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv va oila tizimidagi barqarorlikni belgilovchi asosiy omildir. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun ayollarda emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya va psixologik moslashuv darajasini rivojlantirish zarur.

Oila psixologiyasi amaliyotida ayollarning rol identifikatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish, gender stereotiplarni yumshatish va shaxsiy qadriyatlarni mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayolning o'z rolini to'liq qabul qilishi — oila barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining muhim psixologik kafolatidir. Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadri-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchisifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022-yildagi PF-87-sonli Farmoni. 07.03.2022 y. Toshkent 2022.
2. Shoumarov G.B va boshqalar., "Oila psixologiyasi"., Sharq T 2001. 14-15 bet.
3. Karimova V.K. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliygohlarining barcha bakalavriat yo'nalishlari talabalari uchun darslik.- T;2008-37bet.
4. Fayziyeva M. Va boshqalar. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.T-"O'qituvchi" 2007 y. 45 –48 bet.
5. Karimova G. "Oila va tarbiya: Nazariy va amaliy masalalar". – Toshkent, 2021. 6. Uzoqova M. "Ayollar va jamiyat: Ijtimoiy faollik omillari". – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori. – 2023.
7. Ismoilov A. "Gender tengligi va ta'lim: O'zbekiston tajribasi". – Toshkent, 2022

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.